T_R^{\phi^{90^\circ}}(e_{m,i}) &= (a+g)e_{m-1,i-1} + (b+f)e_{m-1,i} + (c+e)e_{m-1,i+1} + de_{m,i+1} + he_{m,i-1}, \\
T_R^{\phi^{90^\circ}}(e_{j,1}) &= (a+c)e_{j-1,2} + be_{j-1,1} + (d+h)e_{j,2} + (e+g)e_{j+1,2} + fe_{j+1,1}, \\
T_R^{\phi^{90^\circ}}(e_{j,n}) &= ae_{j-1,n-1} + be_{j-1,n} + fe_{j+1,n} + ge_{j+1,n-1} + he_{j,n-1},
\end{aligned}$$

where $2 \leq i \leq n-1$, $2 \leq j \leq m-1$ and $a, b, c, d, e, f, g, h \in \mathbb{Z}_p$.

Then the following result is true.

Theorem 2. Let $T_R^{\phi^{90^\circ}} : \mathbb{Z}_p^{mn} \rightarrow \mathbb{Z}_p^{mn}$ be the rule matrix which takes the finite Moore CA over the configuration $C(t)$ of order $m \times n$ to the configuration $C(t+1)$ under the boundary condition of ϕ^{90° . Then $T_R^{\phi^{90^\circ}}$ has the following matrix form:

$$T_R^{\phi^{90^\circ}} = \begin{pmatrix} A_2 & D_2 & O & O & \dots & O & O & O \\ C_2 & A_2 & B_2 & O & \dots & O & O & O \\ O & C_2 & A_2 & B_2 & \dots & O & O & O \\ \vdots & \vdots & \vdots & \vdots & \ddots & \vdots & \vdots & \vdots \\ O & O & O & O & \dots & C_2 & A_2 & B_2 \\ O & O & O & O & \dots & O & D_2 & A_2 \end{pmatrix}, \quad (5)$$

where $A_2 = A + h\epsilon_{1,2}$, $B_2 = B + g\epsilon_{1,2}$, $C_1 = C + a\epsilon_{1,2}$, $D_1 = B + C + (a+g)\epsilon_{1,2}$, $O, \epsilon_{1,2} \in \mathbf{M}_{n \times n}(\mathbb{Z}_p)$, O is the zero matrix and $\epsilon_{1,2}$ is a unit matrix.

The proof is similar to the proof of Theorem 1.

Now we give the following results without proof for the boundary conditions ϕ^{180° and ϕ^{270° :

$$\phi^{180^\circ}(\eta) = \eta, \quad \phi^{180^\circ}(\rho) = \phi^{180^\circ}(\alpha) = \phi^{180^\circ}(\pi) = \rho,$$

$$\phi^{270^\circ}(\eta) = \eta, \quad \phi^{270^\circ}(\rho) = \phi^{270^\circ}(\alpha) = \phi^{270^\circ}(\pi) = \rho.$$

Theorem 3. Let the boundary conditions generated by ϕ^{180° and ϕ^{270° . Then $T_R^{\phi^{180^\circ}}$ and $T_R^{\phi^{270^\circ}}$ have the following matrix forms:

$$T_R^{\phi^{180^\circ}} = \begin{pmatrix} A_1 & D_1 & O & O & \dots & O & O & O \\ C_1 & A_1 & B_1 & O & \dots & O & O & O \\ O & C_1 & A_1 & B_1 & \dots & O & O & O \\ \vdots & \vdots & \vdots & \vdots & \ddots & \vdots & \vdots & \vdots \\ O & O & O & O & \dots & C_1 & A_1 & B_1 \\ O & O & O & O & \dots & O & C_1 & A_1 \end{pmatrix},$$

$$T_R^{\phi^{270^\circ}} = \begin{pmatrix} A_3 & D_3 & O & O & \dots & O & O & O \\ C_3 & A_3 & B_3 & O & \dots & O & O & O \\ O & C_3 & A_3 & B_3 & \dots & O & O & O \\ \vdots & \vdots & \vdots & \vdots & \ddots & \vdots & \vdots & \vdots \\ O & O & O & O & \dots & C_3 & A_3 & B_3 \\ O & O & O & O & \dots & O & D_3 & A_3 \end{pmatrix},$$

where $A_3 = A + d\epsilon_{n,n-1}$, $B_3 = B + e\epsilon_{n,n-1}$, $C_3 = C + c\epsilon_{n,n-1}$, $D_3 = B + C + (c + e)\epsilon_{n,n-1}$, $O, \epsilon_{n,n-1} \in \mathbf{M}_{n \times n}(\mathbb{Z}_p)$, O is the zero matrix and $\epsilon_{n,n-1}$ is a unit matrix.

Conclusion

In the present we investigate 2D finite linear Moore CA with mixed boundary condition over the p -ary field \mathbb{Z}_p (i.e. p -state spin values). Here, the mixed boundary condition contains reflexive and null boundary conditions. We construct the transition rule matrix corresponding to the model for Moore CA. After that, we change the boundary condition by rotation. Then we find all rule matrices for these type boundary conditions. Note that the four types of boundary conditions mentioned above are studied in theory of CA. But we are satisfied with using null and reflexive. But for the structure of mixed boundary conditions we may study other possible cases. We shall plan to study these type problems in forthcoming works.

Acknowledgment

This work has been supported by Ministry of Innovative Development of Uzbekistan, grant FZ- 20200930492.

REFERENCES

1. A. Adamatzky, Game of life cellular automata Springer, London, 2010.
2. C. Bays, "Cellular Automata in Triangular, Pentagonal and Hexagonal Tessellations," Encyclopedia of Complexity and Systems Science, ed. Meyers, R. Springer, New York, 2009.
3. D. Jumaniyozov, B. Omirov, Sh. Redjepov, S. Uguz, "Irreversibility of 2D Linear CA and Garden of Eden, Intern. J. Bifur. and Chaos, vol. 33 (06), 2350065, 2023.
4. D. Jumaniyozov, J.M. Casas, M. Ladra, B. Omirov, Sh. Redjepov, "2D Linear CA with Mixing Boundary Conditions and Reversibility Intern. J. Bifur. and Chaos, vol. 33 (08), 2350094, 2023.
5. J. Kari, "Reversibility of 2D cellular automata is undecidable," Physica D: Nonlinear Phenomena, vol. 45, 379–385, 1990.
6. I. Siap, H. Akin, S. Uguz, "Structure and reversibility of 2D hexagonal cellular automata," Comput. Math. Applications, vol. 62, 4161–4169, 2011.
7. S. Uguz, H. Akin, I. Siap, "Reversibility algorithms for 3-state hexagonal cellular automata with periodic boundaries," Intern. J. Bifur. and Chaos, vol. 23, 1350101-1-15, 2013.
8. S. Uguz, E. Acar, Sh. Redjepov, "2D Triangular von Neumann Cellular Automata with Periodic Boundary," Intern. J. Bifur. and Chaos, vol. 29 (03), 1950029, 2019.
9. S. Uguz, S. Redjepov, E. Acar, H. Akin, "Structure and Reversibility of 2D von Neumann Cellular Automata Over Triangular Lattice," Intern. J. Bifur. and Chaos, vol. 27, 1750083, 2017.

10. S. Uguz, and S. Redjepov, "Reflexive and adiabatic boundary 2D linear cellular automata and evolution of image patterns," International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), pp. 1–7, 2021.
11. S.M. Ulam, "On some mathematical problems connected with patterns of growth of figures," Proc. Symp. Appl. Math., vol. 14, pp. 215–224, 1962.
12. J. Von Neumann, The Theory of Self-reproducing Automata, A.W. Burks (Ed.), Univ. of Illinois Press, Urbana, 1966.

REZYUME

Ushbu maqolada, ma'lum chegaraviy shartlarda Mur qo'shnilari bo'yicha ikki o'lchovli kletkali avtomatlar (2D KA) qaraladi. Jumladan, \mathbb{Z}_p maydoni ustida ba'zi aralash chegaraviy shartlari bilan Mur qo'shnilari bo'yicha aniqlangan ikki o'lchovli chiziqli kletkali avtomatlarning qoida matritsalarini o'rganamiz. Bundan tashqari, ikki o'lchovli chekli KA uchun olingan qoida matritsalarini teskarilanuvchan bo'lishlik shartlarni aniqlaymiz.

Kalit so'zlar: kletkali avtomatlar, chegaraviy shartlar, qoida matritsasi, teskarilanuvchanlik.

РЕЗЮМЕ

В данной работе при определенных условиях рассматриваются двумерные клеточные автоматы (2D КА) с окрестностью Мура. А именно, мы изучаем матрицы правил двумерных линейных клеточных автоматов, заданных окрестностью Мура с некоторыми смешанными граничными условиями над полем \mathbb{Z}_p . Кроме того, мы представляем условия, при которых полученные матрицы правил для двумерных конечных КА являются обратимыми.

Ключевые слова: клеточные автоматы, граничные условия, матрица правил, реверсивность.

UDC 517.9

UCHINCHI TIP KLASSIK SOHA AVTOMORFIZMLARINING BA'ZI
XOSSALARI

Erkinboyev Q. S. *

REZYUME

Bu maqolada Rudin [2] kitobidagi Teorema 2.2.2 ning Kartanning uchinchi tip klassik sohasidagi analogi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Bir jinsli soha, Simmetrik soha, Klassik soha, Avtomorfizm.

Ma'lumki, Riman teoremasiga asosan chegarasi bir nuqtadan ko'p bo'lgan ixtiyoriy bir bog'lamli soha $U = \{z \in \mathbb{C} : |z| < 1\}$ birlik doiraga bigolomorf ekvivalent bo'ladi. Ammo $\mathbb{C}^n (n > 1)$ fazoda bunday xossa (xususiyat) umuman olganda o'rinli emas. Masalan shar va polidaira o'zaro bigolomorf ekvivalent emas. Shuning uchun, \mathbb{C}^n fazoda bigolomorf sohalar sinfi muhim hisoblanadi.

Aytaylik, $a \in \mathbb{C}^n$ nuqta va $r > 0$ son berilgan bo'lsin ([2]). Ushbu

$$B(a, r) = \{z \in \mathbb{C}^n : |z - a| < r\}$$

to'plam \mathbb{C}^n fazoda markazi a nuqtada, radiusi r bo'lgan shar deyiladi. \mathbb{C}^n kompleks fazoda $B(a, r)$ sharning avtomorfizmi quyidagi formula orqali aniqlanadi[2]:

$$\varphi_a(z) = \frac{a - P_a z - s_a Q_a z}{1 - \langle z, a \rangle}.$$

Bu yerda

$$P_a z = \frac{\langle z, a \rangle}{\langle a, a \rangle} a, Q_a = I - P_a, s_a = \sqrt{1 - |a|^2}.$$

Teorema[2]. $\forall a \in B$ uchun $\varphi_a(z)$ akslantirish quyidagi xossalarga ega:

- 1) $\varphi_a(0) = a$ va $\varphi_a(a) = 0$;
- 2) $\varphi'_a(0) = -s^2 P - sQ$ va $\varphi'_a(a) = -\frac{P}{s^2} - \frac{Q}{s}$;
- 3) $\forall z \in \bar{B}, \omega \in \bar{B}$ lar uchun ushbu

$$1 - \langle \varphi_a(z), \varphi_a(\omega) \rangle = \frac{(1 - \langle a, a \rangle)(1 - \langle z, \omega \rangle)}{(1 - \langle z, a \rangle)(1 - \langle a, \omega \rangle)}$$

tenglik o'rinli;

- 4) $\forall z \in \bar{B}$ uchun quyidagi

$$1 - |\varphi_a(z)|^2 = \frac{(1 - |a|^2)(1 - |z|^2)}{|1 - \langle z, a \rangle|^2}$$

*Erkinboyev Q. S. – Urganch davlat universiteti qerkinboyev@gmail.com

munosabat o'rinli;

- 5) $\varphi_a(\varphi_a(z)) = z$ (involyutsiya bo'lish xossasi);
- 6) $\varphi_a(z)$ gomeomorfizm bo'ladi: $\varphi_a(z) \in Aut(B)$.

Endi yuqorida keltirilgan teoremaning 3-tip klassik soha uchun analogini keltiramiz. Buning uchun bizga quyidagi ta'riflar zarur bo'ladi.

Ta'rif 1. Berilgan $D \subset \mathbb{C}^n$ soha bir jinsli soha deyiladi, agar bu soha avtomorfizmlari gruppasi $Aut(D)$ tranzitiv bo'lsa. Ya'ni ixtiyoriy $z_1, z_2 \in D$ nuqtalar uchun shunday $\varphi \in Aut(D)$ avtomorfizm mavjud bo'lib $\varphi(z_1) = z_2$ munosabat o'rinli bo'lsa.

Ta'rif 2. Bir jinsli $D \subset \mathbb{C}^n$ soha simmetrik soha deyiladi, agar har qanday $\varsigma \in D$ nuqta uchun shunday $\varphi \in Aut(D)$ avtomorfizm mavjud bo'lib quyidagi munosabatlarda o'rinli bo'lsa:

- 1) $\varphi(\varsigma) = \varsigma$, $z \neq \varsigma$ nuqtalar uchun $\varphi(z) \neq z$.
- 2) $\varphi \circ \varphi = e$, bu yerda $e \in Aut(D)$ birlik akslantirish.

Ta'rif 3. G matritsalar gruppasi Li gruppasi tashkil qiladi deyiladi faqat va faqat shu holdaki nosingulyar limitlarga nisbatan yopiq bo'lsa, ya'ni agar $A_1, A_2, \dots \in G$ matritsalar uchun $\lim_{n \rightarrow \infty} A_n = A$ va $\det(A) = 0$ munosabatlarning o'rinli ekanidan $A \in G$ ekani kelib chiqsa.

Ta'rif 4. Chegaralangan $D \subset \mathbb{C}^n$ soha klassik soha deyiladi, agar bu sohaning golomorf avtomorfizmlari to'la gruppasi klassik Li gruppasini tashkil qilsa va tranzitiv bo'lsa.

Bir jinsli, simmetrik, qavariq va chegaralangan kompleks sohalar turli nuqtai nazardan katta qiziqish uyg'otadi. Buning sababi shundaki, ular yordamida bir qator muhim, asosan ko'p o'lchovli natijalar olingan ([1], [2], [3] va boshqalar).

Bir jinsli sohalarda integral formulalar qurishda avtomorfizmlar gruppasidan foydalaniladi. Bunda avtomorfizmlar gruppalarini([4], [5]) keng bo'lgan elementi matritsalaridan iborat sohalar ([1], [6]) qaraladi. Matritsaviy sohalar birinchi bo'lib E.Kartan va K.Zigel tomonidan chuqur o'rganilgan. Jumladan, ular to'rtta klassik sohalar avtomorfizmlarining umumiy ko'rinishlarini tasvirlashgan. Xua Lo-Ken esa klassik sohalar uchun ko'p kompleks o'zgaruvchili funksiyalar nazariyasida garmonik analizni qurgan (1944-1957 yillarda) va ular bo'yicha natijalar Xua Lo-Kenning 1958-yilda xitoy tilida chop etilgan (1959-yilda rus tilida chop etilgan [1]) monografiyasida keltirilgan.

Klassik sohalarning Zigel sohalari bilan bigolomorf akslantirish mavjudligi [7] da keltirilgan. Bunday bigolomorf akslantirishlar yozilgan va ularning chegaralanmagan sohalarga golomorf davom qildirishlar masalalariga tadbirlari keltirilgan ([9], [10]). Shuning uchun klassik sohalar ko'p o'lchovli kompleks analizda muhim o'rin tutadi.

Uchinchi tip klassik soha: $\mathfrak{R}_3(m, m)$ -sohaning har bir elementi ushbu[1]:

$$I^{(m)} + Z\bar{Z} > 0$$

munosabatni qanoatlantiruvchi m -tartibli kososimmetirik kvadrat matritsalaridan iborat. Bunda $I^{(m)}$ - m -tartibli birlik kvadrat matritsa, \bar{Z} esa Z ga qo'shma matritsa.

$\mathfrak{R}_3(m, m)$ uchinchi tip klassik soha avtomorfizmlari quyidagi ko'rinishda bo'ladi[1]:

$$\varphi(Z) = (AZ + B)(-\bar{B}Z + \bar{A})^{-1} = (ZB^* + A^*)^{-1}(ZA' - B') . \quad (1)$$

Bu avtomorfizmlarning koeffitsiyentlari mos ravishda

$$A^*A - B^*B = I^{(m)}, \quad A'B = -B'A \text{ va } A^*A - B'\bar{B} = I^{(m)}, \quad B^*A = -A'\bar{B} \quad (2)$$

shartlarni qanoatlantiradi.

Agar $A = Q$, $A^{-1}B = -P$ deb belgilab (1) akslantirishni soddalashtirsak quyidagi

$$\varphi(Z) = Q(Z - P)(I + \bar{P}Z)^{-1}\bar{Q}^{-1}$$

munosabatga ega bo'lamiz.

Ushbu

$$\varphi_P(Z) = Q(Z - P)(I + \bar{P}Z)^{-1}\bar{Q}^{-1} \quad (3)$$

(bu yerda: $Z \in \mathfrak{R}_3(m, m)$, $\bar{Q}(I + P\bar{P})Q' = I^{(m)}$, $QP + P\bar{Q} = 0$, $Q = Q^*$ (4)) akslantirish berilgan bo'lsin.

Teorema. $\varphi_P(Z)$ akslantirish uchun quyidagi xossalar o'rinli:

1⁰. $\varphi_P(P) = 0$, $\varphi_P(0) = P$;

2⁰. $d(\varphi_P(P)) = QdZQ'$, $d(\varphi_P(0)) = (Q^*)^{-1}dZ\bar{Q}^{-1}$;

3⁰. Ixtiyoriy $Z, W \in \mathfrak{R}_3(m, m)$ uchun ushbu:

$$\det(I - \langle \varphi_P(Z), \varphi_P(W) \rangle) = \frac{\det(I - \langle P, P \rangle) \cdot \det(I - \langle Z, W \rangle)}{\det(I - \langle Z, P \rangle) \cdot \det(I - \langle P, W \rangle)} \quad (5)$$

munosabat o'rinli;

4⁰. Ixtiyoriy $Z \in \mathfrak{R}_3(m, m)$ uchun

$$\det(I - \langle \varphi_P(Z), \varphi_P(Z) \rangle) = \frac{\det(I - \langle P, P \rangle) \cdot \det(I - \langle Z, Z \rangle)}{\det(I - \langle Z, P \rangle) \cdot \det(I - \langle P, Z \rangle)}$$

5⁰. $\varphi_P(\varphi_P(Z)) = Z$ (involuytsiya bo'lish xossasi);

6⁰. $\varphi_P(Z)$ - gomeomorfizm bo'ladi. $\varphi_P(Z) \in \text{Aut}(\mathfrak{R}_3(m, m))$.

Isbot. 1⁰. $\varphi_P(Z)$ akslantirishning $Z = P$ va $Z = 0$ nuqtalardagi qiymatini hisoblaymiz:

$$\varphi_P(P) = 0, \quad \varphi_P(0) = -QP\bar{Q}^{-1}.$$

Endi $QP + P\bar{Q} = 0$ shartga ko'ra $P = -QP\bar{Q}^{-1}$ tenglik o'rinli. Bundan

$$\varphi_P(P) = 0, \quad \varphi_P(0) = P$$

ekani kelib chiqadi.

2⁰. $\varphi_P(Z)$ akslantirishning differensialini hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} d(\varphi_P(Z)) &= d\left(Q(Z - P)(I + \bar{P}Z)^{-1}\bar{Q}^{-1}\right) = \\ &= QdZ(I + \bar{P}Z)^{-1}\bar{Q}^{-1} + Q(Z - P)d\left((I + \bar{P}Z)^{-1}\right)\bar{Q}^{-1} = \\ &= QdZ(I + \bar{P}Z)^{-1}\bar{Q}^{-1} - Q(Z - P)(I + \bar{P}Z)^{-1}\bar{P}dZ(I + \bar{P}Z)^{-1}\bar{Q}^{-1}. \end{aligned}$$

$\varphi_P(Z)$ akslantirish differensialining $Z = P$ va $Z = 0$ nuqtadagi qiymatlarini topamiz

$$d(\varphi_P(P)) = QdZ(I + \bar{P}P)^{-1}\bar{Q}^{-1}, \quad d(\varphi_P(0)) = Q(I + P\bar{P})dZ\bar{Q}^{-1}.$$

(4) munosabatlarga ko'ra

$$(I + \bar{P}P)^{-1}\bar{Q}^{-1} = Q', Q(I + P\bar{P}) = (Q^*)^{-1}$$

tengliklar o'rinli bo'ladi. Demak

$$d(\varphi_P(P)) = QdZQ', d(\varphi_P(0)) = (Q^*)^{-1}dZ\bar{Q}^{-1}.$$

3⁰. Bu xossani isbotlash uchun avvalo ushbu

$$\varphi(Z) = (ZB^* + A^*)^{-1}(ZA' - B'), \varphi(W) = (WB^* + A^*)^{-1}(WA' - B')$$

(bu yerda $A^*A - B^*B = I^{(m)}$, $A'B = -B'A$ va $A^*A - B'\bar{B} = I^{(m)}$, $B^*A = -A'\bar{B}$) munosabatlar uchun $I - \langle \varphi(Z), \varphi(W) \rangle$ ifodani hisoblaymiz.

$$\begin{aligned} I - \langle \varphi(Z), \varphi(W) \rangle &= I - (ZB^* + A^*)^{-1}(ZA' - B')(\bar{A}W^* - \bar{B})(BW^* + A)^{-1} = \\ &= (ZB^* + A^*)^{-1}((ZB^* + A^*)(BW^* + A) - (ZA' - B')(\bar{A}W^* - \bar{B}))(BW^* + A)^{-1} = \\ &= (ZB^* + A^*)^{-1}(ZB^*BW^* + ZB^*A + A^*BW^* + A^*A - ZA'\bar{A}W^* + ZA'\bar{B} + B'\bar{A}W^* - \\ &\quad - B'\bar{B})(BW^* + A)^{-1} = (ZB^* + A^*)^{-1}(Z(B^*B - A'\bar{A})W^* + Z(B^*A + A'\bar{B}) + \\ &\quad + (A^*B + B'\bar{A})W^* + (A^*A - B'\bar{B}))(BW^* + A)^{-1} \end{aligned}$$

(2) munosabatlarga ko'ra quyidagilar o'rinli

$$B^*B - A'\bar{A} = -I, B^*A + A'\bar{B} = 0, A^*B + B'\bar{A} = 0, A^*A - B'\bar{B} = I$$

demak

$$\begin{aligned} I - \langle \varphi(Z), \varphi(W) \rangle &= (ZB^* + A^*)^{-1}(I - ZIW^*)(BW^* + A)^{-1} = \\ &= (ZB^* + A^*)^{-1}(I - ZW^*)(BW^* + A)^{-1} \end{aligned}$$

ya'ni

$$I - \langle \varphi(Z), \varphi(W) \rangle = (ZB^* + A^*)^{-1}(I - ZW^*)(BW^* + A)^{-1}$$

tenglik o'rinli. Bundan esa

$$\det(I - \langle \varphi(Z), \varphi(W) \rangle) = \det((ZB^* + A^*)^{-1}(I - ZW^*)(BW^* + A)^{-1}) =$$

$$= \frac{\det(I - ZW^*)}{\det(ZB^* + A^*)\det(BW^* + A)} = \frac{\det(I - ZW^*)}{\det((ZB^*(A^*)^{-1} + I)A^*)\det(A(A^{-1}BW^* + I))} \quad (6)$$

munosabatning o'rinli ekani kelib chiqadi. Agar $A^{-1}B = -P$ ekanini inobatga olib $I - PP^*$ ning qiymatini hisoblaydigan bo'lsak

$$I - PP^* = I - A^{-1}B(A^{-1}B)^* = I - A^{-1}BB^*(A^{-1})^* = A^{-1}(AA^* - BB^*)(A^{-1})^* = A^{-1}(A^{-1})^*$$

tenglikning o'rinli ekani va bundan

$$\det(I - PP^*) = \det(A^{-1}(A^{-1})^*) = \det(A^{-1}) \det((A^{-1})^*) \quad (7)$$

munosabatning o'rinli ekani kelib chiqadi. (7) tenglikdan foydalanib (6) ni soddalashtiradigan bo'lsak ushbu

$$\det(I - \langle \varphi_P(Z), \varphi_P(W) \rangle) = \frac{\det(I - \langle P, P \rangle) \cdot \det(I - \langle Z, W \rangle)}{\det(I - \langle Z, P \rangle) \cdot \det(I - \langle P, W \rangle)}$$

tenglikga ega bo'lamiz.

4^o. Bu xossani isbotlash uchun (5) tenglikda $W = Z$ almashtirishning o'zi yetarli.

$$\det(I - \langle \varphi_P(Z), \varphi_P(Z) \rangle) = \frac{\det(I - \langle P, P \rangle) \cdot \det(I - \langle Z, Z \rangle)}{\det(I - \langle Z, P \rangle) \cdot \det(I - \langle P, Z \rangle)}.$$

5^o. $\varphi_P(Z)$ akslantirish (bu yerda: $Z \in \mathfrak{R}_3(m, m)$, $\bar{Q}(I + P\bar{P})Q' = I^{(m)}$, $QP + P\bar{Q} = 0$) uchun

$$\varphi_P(\varphi_P(Z)) = Z$$

munosabatning o'rinli ekanini ko'rsatamiz:

$$\begin{aligned} \varphi_P(Z) &= Q(Z - P)(I + \bar{P}Z)^{-1}\bar{Q}^{-1} \\ \varphi_P(\varphi_P(Z)) &= Q(\varphi_P(Z) - P)(I + \bar{P}\varphi_P(Z))^{-1}\bar{Q}^{-1} = \\ &= Q\left(Q(Z - P)(I + \bar{P}Z)^{-1}\bar{Q}^{-1} - P\right)\left(I + \bar{P}Q(Z - P)(I + \bar{P}Z)^{-1}\bar{Q}^{-1}\right)^{-1}\bar{Q}^{-1} = \\ &= Q(Q(Z - P) - P\bar{Q}(I + \bar{P}Z))(I + \bar{P}Z)^{-1}\bar{Q}^{-1}\bar{Q}(I + \bar{P}Z)(I\bar{Q}(I + \bar{P}Z) + \\ &+ \bar{P}Q(Z - P))^{-1}\bar{Q}^{-1} = Q(QZ - QP - P\bar{Q} - P\bar{Q}\bar{P}Z)(\bar{Q} + \bar{Q}\bar{P}Z + \bar{P}QZ - \bar{P}QP)^{-1}\bar{Q}^{-1} = \\ &= Q((Q - P\bar{Q}\bar{P})Z - (QP + P\bar{Q}))((\bar{Q}\bar{P} + \bar{P}Q)Z + (\bar{Q} - \bar{P}QP))^{-1}\bar{Q}^{-1} = \\ &= (Q(Q - P\bar{Q}\bar{P})Z - Q(QP + P\bar{Q}))(\bar{Q}(\bar{Q}\bar{P} + \bar{P}Q)Z + \bar{Q}(\bar{Q} - \bar{P}QP))^{-1}. \end{aligned}$$

Bundan $\varphi_P(Z)$ akslantirishning koeffitsiyentlari uchun (4) munosabatlarning o'rinli ekanini hisobga olsak quyidagilarga ega bo'lamiz:

$$Q(Q - P\bar{Q}\bar{P}) = I, \bar{Q}(\bar{Q} - \bar{P}QP) = I, Q(QP + P\bar{Q}) = 0, \bar{Q}(\bar{Q}\bar{P} + \bar{P}Q) = 0. \quad (8)$$

Endi (8) munosabatlardan quyidagi tenglik kelib chiqadi

$$\varphi_P(Z) = (Q(Q - P\bar{Q}\bar{P})Z - Q(QP + P\bar{Q}))(\bar{Q}(\bar{Q}\bar{P} + \bar{P}Q)Z + \bar{Q}(\bar{Q} - \bar{P}QP))^{-1} = Z,$$

ya'ni

$$\varphi_P(\varphi_P(Z)) = Z.$$

6⁰. Bu xossani isbotlashda dastlab $\varphi_P(Z) \in \text{Aut}(\mathfrak{R}_3(m, m))$ ekanini ko'rsatamiz. Biz yuqorida $\mathfrak{R}_3(m, m)$ uchunchi tip klassik soha avtomorfizmini (1) ko'rinishida $A = Q$, $A^{-1}B = -P$ deb almashtirish bajarish orqali ushbu

$$\varphi(Z) = Q(Z - P)(I + \bar{P}Z)^{-1}\bar{Q}^{-1} \quad (9)$$

ko'rinishiga ega bo'lgan edik. Agar $A = Q$, $A^{-1}B = -P$ almashtirishni e'tiborga olsak (2) munosabatlar quyidagiga

$$\bar{Q}(I + P\bar{P})Q' = I^{(m)} \quad (10)$$

ekvivalent. Biz qarayotgan $\varphi_P(Z)$ akslantirish uchun (4) munobatlarning o'rinli ekanidan va uchinchi tip klassik soha avtomorfizmining (9) ko'rinishi uchun (10) munosabatning o'rinli ekanidan $\varphi_P(Z) \in \text{Aut}(\mathfrak{R}_3(m, m))$ kelib chiqadi.

Demak $\varphi_P(Z)$ -gomeomorfizm bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Хуа Ло-кен. Гармонический анализ функций многих комплексных переменных в классических областях. – М.: ИЛ, 1959. – 163 с.
2. Рудин У. Теория функций в единичном шаре из \mathbb{C}^n . – М.: Мир, 1984. – 456 с.
3. Krantz S. G. Harmonic and complex analysis in several variables. Cham: Springer, 2017. <https://doi.org/10.1007/978-3-319-63231-5>
4. Айзенберг Л. А., Формулы Карлемана в комплексном анализе, Наука, Новосибирск, 1990.
5. Айзенберг Л. А, Южаков А. П. Интегральные представления и вычеты в многомерном комплексном анализе. – Новосибирск: Наука, 1979. –366 с.
6. Худайберганов Г., Хидиров Б.Б., Рахмонов У.С. Автоморфизмы матричных шаров. Вестник НУУЗ. 2010. №3. с-205-210.
7. Пятецкий-Шапиро И.И. Геометрия классических областей и теория автоморфных функций. М.: ИЛ., 1961 г.
8. Беллман Р. Введение в теорию матриц. – М.: Наука, 1976.
9. G. Khudayberganov, U.S. Rakhmonov, Z.Q. Matyakubov. Integral formulas for some matrix domains. Contemporary Mathematics, AMS, Volume 662, 2016, pp. 89-95.
10. Г. Х. Худайберганов, Б. Т. Курбанов, Некоторые задачи комплексного анализа в матричных областях Зигеля, Наука –технология – образование – математика – медицина, СМФН, 68, №1, Российский университет дружбы народов, М., 2022, 144–156

РЕЗЮМЕ

В этой статье получен аналог Теоремы 2.2.2 из книги Рудина [2] для классических областей Картана третьего типа.

Ключевые слова: Однородная область, Симметричная область, Классическая область, Автоморфизма.

RESUME

In this paper, we obtain an analog of Theorem 2.2.2 from Rudin's [2] book for classical Cartan domains of the third type.

Key words: Homogeneous domain, Symmetric domain, Classical domain, Automorphism.

UDC 519(6)

**O‘ZBEKISTON AHOLISI O‘SISHINING MATEMATIK MODELINI VA BA‘ZI
KO‘RSATKICH TAHLILLARI****Jabborov N. M. * Narmanov A. J. *****REZYUME**

Ushbu maqola mustaqillikka erishishilgandan keyingi O‘zbekiston Respublikasi aholisi ko‘payishining matematik modelini tavsiflashga bag‘ishlangan. Model uchta chiziqli bo‘lmagan differensial tenglamalardan iborat, ammo oz sonli o‘zgaruvchilar va parametrlarga qaramay, u inson evolyusiyasining eng muhim omillari – demografiya, iqtisodiyot, texnologiya va savodxonlik dinamikasini yuqori aniqlik bilan tavsiflaydi.

Kalit so‘zlar: demografik model, tug‘ilish darajasi, o‘lim darajasi, migratsiya, populyatsiya, giperbolik o‘shish, daromad darajasi.

Kirish

Respublikamizda barqaror va samarali iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning markazida demografik vaziyat turibdi. O‘zbekistonda o‘ziga xos demografik vaziyat mavjud: u aholi o‘shish sur‘atlarining ortishi, uning tug‘ilish darajasi, o‘lim darajasining kamayishi va shu bilan birga, mehnatga layoqatli aholi sonining ko‘payishida namoyon bo‘lmoqda. Aholi jamiyat taraqqiyotida ishlab chiqaruvchi kuch sifatida ham, iste‘molchi sifatida ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini e‘lon qilgandan so‘ng 1991-yildan boshlab mamlakatimizda ham demografik vaziyat o‘zgara boshladi. O‘zbekiston aholisi 1991-yildan keyin eng ko‘p miqdorda o‘sgan davlat (+68,4 %) hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida aholi soni 2024-yil 1-yanvar holatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotiga [2] ko‘ra 36 779 800 nafarni tashkil qiladi. Bu aholining yashash dinamikasiga ko‘ra, bu raqam doimo o‘zgarib turadi. 2023-yilda Respublikamizda tug‘ilish 3,2% ni, o‘lim taxminan 0,4 % ni, tabiiy o‘shish esa 3,8 % ni tashkil etdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida [1] o‘tgan yili mamlakatimiz aholisi 36 milliondan oshganini, har yili qariyb 900 ming nafar yangi avlod vakillari bilan to‘ldirilayotganini ta’kidladi. Katta va do‘stona oilamiz – O‘zbekistondagi har bir inson tinch va farovon yashashi uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qilmoqdamiz. Xalq bizdan maktablar, bolalar bog‘chalari va kasalxonalar qurishni, ta’lim va tibbiyot sifatini oshirishni, ichimlik suvi va elektr energiyasi, yo‘l va transport bilan bog‘liq mahalliy muammolarni hal etishni, ish o‘rinlari sonini ko‘paytirishni, tadbirkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratishni, adolatni ta‘minlashni, byurokratiya va korrupsiyaga

* **Jabborov N. M.** – Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti professori, f.-m.f.d., jabborov61@mail.ru

* **Narmanov A. J.** – Toshkent shahridagi "MEI" milliy tadqiqot universiteti Federal davlat byudjeti oliy ta’lim muassasasi filiali katta o‘qituvchisi, a-narmanov@mail.ru

barham berishni kutmoqda deb aytib o‘tgandi. Binobarin, Yangi O‘zbekistonni o‘zgartirishda "Avvalo, inson, keyin jamiyat va davlat" tamoyili asosiy o‘rin tutadi.

Aholi sonining oshishi birinchi navbatda sog‘liqni saqlash va ta‘lim tizimiga bosim tushadi. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institutining ma‘lumotiga ko‘ra: Yevropa mintaqasi mamlakatlarida har 10 ming kishiga o‘rtacha 34 nafar shifokor to‘g‘ri keladi, Amerikada – 24, G‘arbiy Tinch okeani mintaqasida – 19, Sharqiy O‘rtayer dengizida – 10, Janubi-Sharqiy Osiyoda – 8, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 27 nafarni tashkil etadi. Agar Yevropa va Amerika mamlakatlarida har 10 000 kishiga 80 nafardan ortiq (81 va 83) hamshira to‘g‘ri kelsa, O‘zbekistonda 10 000 kishiga 107 nafar hamshira to‘g‘ri keladi.

Aholi sonining oshishi bilan ta‘lim tizimiga ham bosim tushadi. 2022-yil boshida 3–6 yosh oralig‘idagi bolalar soni 2855,2 ming nafarni tashkil qilgan. Prognozlarga ko‘ra, 2026–yilga borganda ularning soni 3567,3 ming nafarni, 2030–yilda esa 3631,9 ming nafarni tashkil etadi.

3–6 yosh oralig‘idagi bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olishning erishilgan ko‘rsatkichlarini saqlab qolish va kelajakda respublikaning barcha hududlarida jahonning rivojlanayotgan davlatlaridagi kabi ko‘rsatkichlarni (80 % atrofida) ta‘minlash uchun 1 million 400 ming nafar bola uchun maktabgacha ta‘lim muassasalarida yangi o‘rinlar tashkil etish, malakali mutaxassis-tarbiyachilarni tayyorlash zarur, deb hisoblanadi. 2030-yilga borib, 3–6 yosh oralig‘idagi barcha bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish natijasida 28 000 ta ish o‘rni tashkil etish mumkin.

2029/2030–o‘quv yiliga qadar bitiruvchilar hamda 1–sinfga qabul qilinadiganlar o‘rtasidagi tafovut o‘rtacha 162,8 ming o‘quvchini tashkil qiladi. Yiliga o‘rta hisobda qo‘shimcha 162,8 ming o‘quvchi uchun kamida 4500 nafar yangi o‘qituvchi jalb qilish zarur bo‘ladi. 2021/2022–o‘quv yilida jami o‘quvchilar soni 6 mln 304 ming 600 nafar, o‘qituvchilar soni 529,1 ming nafar, ya‘ni bitta o‘qituvchiga 11,9 nafar o‘quvchi to‘g‘ri keladi. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu ko‘rsatkich 10 nafardan oshmaydi.

Har yili oliy o‘quv yurtlari o‘rtacha 30 ming nafar oliy ma‘lumotli pedagogni mehnat bozoriga chiqaradi. Oliy ma‘lumot bilan qamrab olish darajasini 50 % ga yetkazish va ayollar uchun kvotalar sonini oshishi natijasida, 2030-yilga borib, oliy o‘quv yurtlari har yili o‘rta hisobda 35?40 ming nafar pedagog kadrlarni tayyorlashi kutilmoqda. Buning natijasida har bir o‘qituvchiga 10 ta o‘quvchi to‘g‘ri keladi. Bugungi kunda respublikada 180 dan ortiq oliy o‘quv yurti faoliyat yuritmoqda. 2021/2022–o‘quv yilida OTMlarga bitiruvchilarni oliy ta‘lim bilan qamrab olish darajasi 38 % ga yetdi. Bitiruvchilarni 50 % oliy ta‘lim bilan qamrab olish uchun zarur bo‘lgan talaba o‘rinlari soni: 2026-yilda jami o‘rta ta‘limni bitiruvchilar soni 619,0 ming nafar, 2030-yilga borib, 615,5 ming nafar bo‘lishi kutilmoqda.

2030-yilda o‘rta ta‘lim bitiruvchilarni 50 % oliy ta‘lim bilan qamrab olish uchun OTMlarning hozirgi quvvatini 8 yil ichida 1,5–1,8 marta oshirish zarur.

Tadqiqotlarga ko‘ra, millat 25 yil yashashi uchun har bir oilada tug‘ilish koeffitsienti bir oilaga 2,11 farzand to‘g‘ri kelishi kerak. Bundan kam bo‘lsa, millat yo‘qoladi. Agar tug‘ilish koeffitsienti 1,9 ga teng bo‘lsa millat qayta tiklanmaydi. Bugungi kunda tug‘ilish koeffitsienti Fransiyada – 1,8 ni, Angliyada – 1,6 ni, Gresiyada – 1,3 ni, Italiyada – 1,2 ni, Ispaniyada – 1,1 ni tashkil etmoqda. Yevropa Ittifoqining 31 davlatida tug‘ilish koeffitsienti har bir oilaga o‘rtacha 1,38 tadan to‘g‘ri kelmoqda.

Matematik modellarning har xil turlari ma‘lum demografik jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi. So‘nggi o‘n yilliklarda prognozlash nazariyasining

rivojlanishi turli xil parametrlarda prognozlarini tuzishning ko‘plab protseduralari va usullarini ishlab chiqishga olib keldi ([4, 5, 8]).

Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi aholisi o‘shining ijtimoiy holatini matematik modellashtirish, unga iqtisodiyot, texnologiya va ta‘lim rivojlanishining ta‘sirining ba‘zi ko‘rsatkichlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Matematik modellar va demografiya

Ijtimoiy fanlar va matematikaning konstruktiv sintezi ijtimoiy miqdorlarni o‘lchashning adekvat usullarini joriy qilishni talab qiladi. Xuddi fizikada bo‘lgani kabi, ba‘zi miqdorlarni nisbatan oson baholash mumkin, boshqalarni o‘lchash ko‘p vaqt talab qiladigan mehnatni, hatto yordamchi modellarni qurishga to‘g‘ri keladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchash uchun eng qulay ijtimoiy miqdorlardan biri bu odamlar soni. Shu sababli, demografiya sohasi tadqiqotchilarni o‘ziga jalb qiladi. Ma‘lumotlarning o‘lchanishi va demografik dinamikani tavsiflovchi saqlanish qonunidan kelib chiqadigan formulaga ko‘ra:

$$\frac{dN}{dt} = H - D, \quad (1)$$

bu yerda N – Respublikamizdagi umumiy aholi soni, H – tug‘ilganlar soni va D – vaqt birligidagi o‘limlar soni. Tug‘ilganlar soni ham, o‘limlar soni ham boshqa ko‘plab ijtimoiy parametrlarga bog‘liq ekanligi ayon bo‘ladi.

Bundan tashqari, formula (1) migratsiya jarayonlarini hisobga olmaydi va shuning uchun uni kengaytirish kerak:

$$\frac{dN}{dt} = H - D - \text{div}\mathbf{J}$$

bu yerda \mathbf{J} vektor migratsiya oqimiga mos keladi. Migratsiya jarayonlari tashqi omillar ta‘siriga ko‘proq moyil bo‘lganligi sababli vazifa murakkablashadi.

Tug‘ilish va o‘limning biologik jarayonlari nafaqat insonlarga, balki hayvonlarga ham xosdir. Shuning uchun biologiyada qo‘llaniladigan aniq populyatsiya modellaridan foydalangan holda demografik modellarni tavsiflashga urinish mutlaqo tabiiy qadamdir.

Hayvonlar populyatsiyasining dinamikasini tavsiflovchi asosiy model Ferxyulst tomonidan taklif qilingan logistik modeldir:

$$\frac{dN}{dt} = rN\left(1 - \frac{N}{K}\right), \quad (2)$$

yoki (2) ni quyidagi ko‘rinishlarda ifodalash mumkin:

$$\frac{dN}{dt} = (a_1N) - (a_2N + bN^2), \quad (3)$$

bu yerda birinchi qavs H tug‘ilganlar soniga, ikkinchisi esa (1) formuladagi D o‘lganlar soniga to‘g‘ri keladi va r , K , a_1 , a_2 , b musbat koeffitsientlar bo‘lib quyidagi munosabatlar orqali o‘zaro bog‘langan.

$$r = a_1 - a_2 \quad \text{va} \quad b = \frac{r}{K}.$$

(3) tenglamaning mantig‘i quyidagicha: tug‘ilish darajasi a_1 doimiy, shuning uchun tug‘ilganlar soni $B = a_1N$ populyatsiya soniga mutanosib, tabiiy o‘lim a_2 ham doimiy

hisoblanadi va kvadratik qo'shilish bN^2 ga teng deb olsak bo'ladi. Yana bir mashhur populyatsiya modeli Lotka-Volterra modeli [3] bo'lib, "Yirtqich-o'lja" modeli sifatida tanilgan. U o'zaro ta'sir qiluvchi ikkita turning populyatsiya dinamikasini tavsiflaydi, ulardan biri ikkinchisi uchun asosiy oziqa hisoblanadi va (1) ko'rinishdagi ikkita tenglamadan iborat:

$$\begin{cases} \frac{dx}{dt} = Ax - Bxy, \\ \frac{dy}{dt} = Cxy - Dy. \end{cases} \quad (4)$$

bu yerda x – o'lja soni, y – yirtqichlar soni, A, B, C, D – koeffitsientlar. Ushbu modelni ham aholi o'sishiga tadbiiq qilish mumkin. (4) dan demografik yangi matematik model sifatida foydalanish mumkin. Jabrlanuvchi roliga aholi, yirtqich roliga esa ijtimoiy beqarorlik, urushlar, ocharchiliklar, epidemiyalarni sifatida olamiz.

Respublika aholisining giperbolik o'sishi va S.P. Kapitsa modeli

Agar biz butun insoniyat dinamikasini kuzatsak, inson populyatsiyasi giperbolik qonunga muvofiq o'sishini ko'ramiz. Bu haqdagi birinchi ishlar 1960-yili fon Forrester, Mora va Emietlar tomonidan yozilgan [11]. Ular demografik ma'lumotlarda statistik baholashni amalga oshirdilar va aholining o'sishi eng yaxshi egri chiziq bilan yaqinlashishini aniqladilar.

$$N = \frac{C}{t_0 - t}, \quad (5)$$

bu yerda C va t_0 doimiylar.

Forster (1) va (3) tenglamalardagi ko'rsatkichlarni baholab, aholining o'sish jarayonini tasvirlamaydi degan xulosaga keladi. Forster modelga nochiziqlikni kiritish orqali modellashtirishni taklif qiladi

$$\frac{dN}{dt} = (a_0 N^{\frac{1}{k}})N,$$

bu yerda a_0, k tajribadan aniqlanishi kerak bo'lgan doimiylar.

$$N = N_1 \left(\frac{t_0 - t_1}{t_0 - t} \right)^k,$$

Forster k ni birga teng deb hisoblab, uning yechimini (5) ko'rinishda yozadi.

(1), (2) biologik taxminlarga asoslangan demografik modellardan farqli o'laroq, S.P.Kapitsa modeli aholi o'sishi tug'ilish va o'lim vaqt o'tishi bilan kam o'zgaradi degan taxminga asoslanadi:

$$\frac{dN}{dt} = aN, \quad (6)$$

a doimiy bo'lsa, S.P.Kapitsa o'sish tezligi uchun kvadratik bog'liqlikdan foydalanishni taklif qiladi:

$$\frac{dN}{dt} = \frac{N^2}{C}, \quad (7)$$

bu yerda C doimiydir.

(7) ko'rinishdagi tenglamalar [12] da yaxshi o'rganilgan va ularning yechimlari *portlash rejimlari* deb nomlanadi. Bunday tenglamalarning xarakterli xususiyati shundaki, chekli t_0 vaqtda yechim cheksizlikka intiladi.

Demografik o'tishni tavsiflash uchun S.P. Kapitsa modelni quyidagicha o'zgartiradi. Kapitsa modeldagi muhim parametr sifatida "insoniyat tizimi va inson rivojlanishining ichki cheklash qobiliyati"ni ifodalovchi $\tau = 42$ yilni insonning xarakterli hayot davri deb hisoblaydi. S.P.Kapitsa demografik o'sish ikki marta τ ga teng xarakterli vaqt davomida sodir bo'lishini ta'kidlaydi.

Agar (5) yechimni kvadrat o'sish tenglamasiga (7) almashtirsak, u holda uni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin.

$$\frac{dN}{dt} = \frac{C}{(t_0 - t)^2}, \quad (8)$$

O'z navbatida, demografik o'tishni tavsiflash uchun S.P.Kapitsa ushbu tenglamaga τ parametrini kiritadi:

$$\frac{dN}{dt} = \frac{C}{(t_0 - t)^2 + \tau^2}, \quad (9)$$

Bunday modifikatsiya bilan aholi soni barqarorlashadi, bu demograflarning prognozlariga mos keladi. (9) tenglama aholi sonining analitik formulasini olish imkonini beradi:

$$N = \frac{C}{\tau} \operatorname{arctg}\left(\frac{t_1 - t}{\tau}\right), \quad (10)$$

bu yerda t_1 qarayotgan vaqt oralig'ining o'rtasiga teng parametr – demografik o'tishning o'rtasi. Demografik o'tish effektini tavsiflovchi asosiy tenglama (7) ham, uning modifikatsiyasi (9) ham mavjud qonunlarning mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Har ikkala ifodaning matematik ekvivalentligiga qaramay, yozuv shaklidagi farq ularning talqinidagi farqni belgilaydi.

Olingan empirik qonuniyat va hatto uning muvaffaqiyatli matematik interpolyatsiyasi ham asosiy qonuniyatni bermaydi. Bunday vaziyatdan chiqishning yagona yo'li oltin o'rtalikni topishdir.

O'zbekiston aholisining o'sish modeli va texnologiyalar M. Kremer modeli

Agar avvalgi barcha pasayishlar, birinchi navbatda, turli ofatlar – urushlar, ocharchiliklar, epidemiyalar tufayli o'limning ko'payishi bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa hamda bu ofatlar tugashi bilan insoniyat tezda tiklanib, avvalgi traektoriyasiga qaytgan bo'lsa, hozirgi pasayish boshqa sabablarga ko'ra yuzaga kelmoqda. Maykl Kremer [10] tomonidan taklif qilingan eng oddiy model mahsulot ishlab chiqarish ikki omilga bog'liqligini nazarda tutadi: texnologiya darajasi va aholi soni.

M. Kremer Y – ishlab chiqarilgan mahsulot, p – aholi soni, A – texnologiya darajasi uchun belgilarni qo'llaydi.

Kremer, ishlab chiqarilgan umumiy mahsulotni quyidagiga teng deb hisoblaydi, ya'ni

$$G = TN^\alpha V^{1-\alpha},$$

bu yerda G – umumiy mahsulot, T – texnologiya darajasi, V – foydalanilgan yer resurslari, $0 < \alpha < 1$ parametr. Bunda M. Kremer Kobba-Duglas funksiyasidan foydalanadi va bu o'zini to'liq oqlamaydi. Unga ko'ra, normallashtirish natijasida V o'zgaruvchi birga teng. Ishlab chiqarilgan mahsulot tenglamasi quyidagi ko'rinishga keladi:

$$G = rTN^\alpha, \quad (11)$$

bu yerda r, α ba'zi doimiylar.

M. Kremer Maltus [7] pozitsiyasidan (11) foydalanib, uni quyidagicha qayta shakllantiradi: modelda aholi o'sishi \bar{N} muvozanat darajasiga yaqinlashadi. Modelidagi muvozanat miqdori aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulot ishlab chiqaradigan aholi darajasiga mos keladi, agar jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulot \bar{g} yuqori bo'lsa, aholi soni ko'payadi va jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulot kamroq bo'lsa, \bar{g} kamayadi. Shunday qilib, populyatsiyaning \bar{N} muvozanat darajasi

$$\bar{N} = \left(\frac{\bar{g}}{T} \right)^{\frac{1}{\alpha-1}}, \quad (12)$$

ga tengdir.

Avvalroq S.Kuznes [12] va Saymon [9] "Aholining ko'pligi potensial ixtirochilar sonining ko'pligida" degan g'oyani ilgari surishgan edi. Kremer bunga oydinlik kiritadi [10, 685-b]. Matematik jihatdan M. Kremer bu pozitsiyani quyidagicha ifodalaydi:

$$\frac{dT}{dt} = bNT, \quad (13)$$

bu yerda b bitta ixtirochining o'rtacha mahsuldorligi.

O'sish hozirgi darajaga va ixtirolar intensivligiga bog'liqligi aniq bo'lsa-da, bu bog'liqlik chiziqli bo'lishi shart emas. Shuning uchun M. Kremer S. Jonsning texnologik o'sish tenglamasiga murojaat qiladi [6]:

$$\frac{dT}{dt} = bNT^\phi,$$

bu yerda ϕ ko'rsatkich birga teng emas. U texnologiyani hozirgi darajasining o'sish sur'atiga bog'liq.

S. Jonsning o'zi $\phi < 1$ deb hisoblaydi, uning fikricha, urushdan keyingi davrda texnologik o'sish sekinlashadi. Barcha mumkin bo'lgan bog'liqliklarni qoplash uchun Jons umumiy tenglamaga aholi soni uchun kuch qonunini kiritishni taklif qiladi:

$$\frac{dT}{dt} = bN^\psi T^\phi, \quad (14)$$

Ushbu model, aholining o'sishi va texnologiyani hisobga olgan holda, aholining giperbolik o'sishini qoniqarli tarzda tavsiflaydi, ammo $\phi < 1$ bo'lishi bilan o'sish sur'atlarining sun'iy pasayishiga qaramay, u demografik o'tishni to'liq tasvirlamaydi.

O'z modelining kamchiliklarini tushunib, M. Kremer uni o'zgartirishga harakat qiladi. Modelga aholi sonining o'sishiga cheklovlarni kiritish uchun tug'ilish darajasini daromad funksiyasi sifatida tavsiflovchi ancha murakkab funksiyani kiritadi.

Bu yerda A tug'ilish va o'lim o'rtasidagi farq, g - aholi jon boshiga daromad bo'lib, u modelda $g = G/N$ sifatida hisoblanadi.

Xulosa

Maqolada global demografiyaning mavjud matematik prinsiplari tahlil qilindi. Shuningdek, maqolada aholining giperbolik o'sishini tavsiflash demografik-texnologik yondashuvini empirik asoslash orqali amalga oshirildi. Uchta muhim ko'rsatkich – aholi soni,

texnologiya darajasi va savodxonlik darajasini o'z ichiga olgan demografik o'tish modeli taklif qilindi. Model mustaqilligimizning dastlabki yillaridan hozirgi kungacha ko'rib chiqilgan oraliqdagi uch ko'rsatkichning qo'shma dinamikasini aniq tasvirlab beradi.

ADABIYOTLAR

1. Sh. M. Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi" 20.12.2022-y.
2. Демографическая ситуация в Республике Узбекистан. // Агентство Статистики при Президенти Республики Узбекистан. (январь-декабрь 2023 г.), г.Ташкент.
3. Вольгерра В., Математическая теория борьбы за существование, М.Наука, 1976.
4. Капица С. П. Математическая модел роста населения мира. Математическое моделирование 4/6: 65–79. 1992.
5. Подлазов А. В. Основное уравнение теоретической демографии и модел глобального демографического перехода. Препринт ИПМ им. М.В. Келдыша РАН, No 88. 2001.
6. Jones, C. R&D Based Models of Economic Growth, unpublished, Massachusetts Institute of Technology, 1992.
7. Malthus, T. Population: The First Essay. Ann Arbor, MI: University of Michigan Press. 1978.
8. Aghion P. and Howitt P. Endogenous Growth Theory. Cambridge, MA: MIT Press. 1998.
9. Simon J. The Economics of Population Growth. Princeton: Princeton University Press. 1977.
10. Kremer M. Population Growth and Technological Change: One Million B.C. to 1990. The Quarterly Journal of Economics 108: 681–716. 1993.
11. Foerster von H., Mora P. and Amiot L. Doomsday: Friday, 13 November, A.D. 2026. Science 132:1291–5. 1960.
12. Kuznets S. Population Change and Aggregate Output. in Demographic and Economic Change in Developed Countries. Princeton, NJ: Princeton University Press. 1960.

РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена описанию математической модели роста населения Республики Узбекистан после обретения независимости. Модель состоит из трех нелинейных дифференциальных уравнений, несмотря на небольшое количество переменных и параметров, с высокой точностью описывает важнейшие факторы эволюции человека – демографию, экономику, динамику технологий и образования.

Ключевые слова: демографическая модел, рождаемость, смертность, миграция, численность населения, гиперболический рост, уровень доходов.

RESUME

This work is devoted to the description of the mathematical model of the development of the population of Republik Uzbekistan after independence. The model includes three nonlinear differential equations and despite its relative simplicity, it describes the dynamics of paramount factors of social evolution, such as demography, economics, technology and education, to high precision.

Key words: demographic model, birth rate, death rate, migration, population, hyperbolic growth, income level.

UDC 519(6)

**O'ZBEKISTON FOND BOZORIDAGI AKSIYALARNI BAHOSINI
O'ZGARISHINI PROGNOZ QILISHDA MARKOV ZANJIRINI QO'LLASH****Jabborov N. M. * Mirzamurodov O. S. *****REZYUME**

Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyat tendentsiyalarini bashorat qilish qiyin muammodir. Bu borada turli tadqiqotchilar tomonidan sinab ko'rilgan ko'plab usullar mavjud. Bulardan biri Markov jarayonidir. Biz Markov zanjiridan foydalangan holda O'zbekistonda fond bozoridagi qimmatbaho qog'ozlarni tendentsiyalarini prognoz qilish uchun matematik modelini quramiz, bu investorlarga aksiyalarning keyingi narxlarini tahlil qilish uchun juda muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Markov zanjiri, O'tish ehtimoli matritsasi, Fond bozori, qimmatbaho qog'ozlar, aksiyalar.

Kirish

Jahon iqtisodiyotining yuqori tezlikda rivojlanishi bilan odamlarning turmush darajasi va ixtiyorida bo'ladigan daromadlari tez o'sib borayotgani va har bir kishining moliyaviy xabardorligi va investitsiyalarga qiziqishi tobora ortib bormoqda. O'zbekistonning kapital bozorlari xam rivojlanayotgani va odamlarning aksiyaga qiziqishi ortib boryapti. O'zbekiston fond bozorining 1994 yilda tashkil topgan va shundan beri asta sekinlik bilan rivojlanib kelmoqda. 2018 yildan boshlab aksiyalar IPOga chiqarila boshladi.

Rivojlangan mamlakatlarda qimmatbaho qog'ozlar bilan savdo qilish shu yurtda yashaydigan aholining ma'lum bir jamgarmasini qimmatbaho qog'ozlarga almashtirib o'zining ertangi kunini moliyalashtirish yaxshi yolga qo'yilgan. Bizda xam shu kabi aholini passiv daromadlarini oshirish uchun Respublikadagi aksiyadorlik jamiyatlariga xam bo'sh turgan mablag'larni aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari va obligatsiyalarinii sotib olishga yo'naltirish kapital bozorini rivojlanishiga olib keladi[1].

Investorlar investitsiyalardan katta daromad olish uchun turli xil texnik tahlillar bilan tanishishlari kerak. Asosiy tahlil orqali aksiyalarni tanlash va texnik tahlil orqali aksiyalarni sotib olish va sotish vaqtini tasdiqlash muhim ahamiyatga ega. Narxleri tasodifiy o'zgarib turadigan samarali fond bozori bozor ma'lumotlarining bir xil taqsimlanishini aks ettiradi, ammo biz o'tmishdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali fond bozorining kelajakdagi tendentsiyasini taxmin qilishimiz mumkin. Ushbu maqolada biz aksiyadorlarni noto'g'ri xatti-harakatlarning oldini olish uchun va to'g'ri qaror qabul qilib qaysi aksiyalarga invitisiya kiritishda muhim bo'ladigan matematik model yaratishga xarakat qilamiz. Biz Markov modelidan foydalanib fond bozori indeksini, aksiya bahosini holatini tahlil qilishni va keying narxleri uchun prognoz qilamiz.

* **Jabborov N. M.** – Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti "Amaliy matematika" kafedrası professori, f.-m.f.d., jabborov61@mail.ru

* **Mirzamurodov O. S.** – Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti "Amaliy matematika" kafedrası assisenti

Markovning bashorat qilish modeli zamonaviy statistikada muhim rol o‘ynaydi. Markov modelining boshqa statistik usullardan (masalan, regressiya tahlili, vaqt seriyasi va boshqalar) farqi shundaki, Markov modelida jamiyki omillar o‘zaro bog‘liqligini hisobga olish shart emas, faqat evolyutsiyaning tarixdagi xususiyatlarini hisobga olish yetarli. Hodisaning o‘zi holati va holatning o‘tish ehtimolini hisoblash orqali qimmatboho qog‘ozlar narxining o‘zgarishini bashorat qilishda, Markov modeli keng qo‘llaniladi.

Adabiyotlar tahlili

Qimmatli qog‘ozlar indeksleri va daromadlari uchun maqbul bashorat qiymatlardagi tasodifiylik tufayli qiyin bo‘lib qolmoqda. Ko‘pgina tadqiqotlarda vaqtli qatorlar yordamida modellashtirish asosiy parameter sifatida qabul qilinadi. Vaqtli qatorlar asosida modellashtirishda ham asosiy parameter sifatida foydalanganda ham qimmatbaho qog‘ozlarning narxining o‘zgarishini to‘liq ifodalay olmaydi. Jumladan O‘zbekiston fond bozoridagi bazi bir aksiyalarni narxini bashorat qilishda vaqtli qatorlar asosida modellashtirishi samarali natija bermaydi. Biz Markov zanjiridan foydalangan xolda taxlil qilmoqchimiz

Markov jarayonidan foydalangan holda tahlil qilishni Zhang Yudong va Wu Lenan aksiya bahosi uchun chiziqli bo‘lmagan dinamik modelni taklif etadi[2]. Deju Zhang va Xiaomin Zhang Markov modeli usulidan foydalanib aksiya bahosini oldindan ko‘rishni Xitoy fond bozoridagi tendentsiyalarini prognoz qilish uchun Markov zanjiri stoxastik modelini taklif qiladilar[3]. Ularning tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, Markov jarayoni oldingi narxlar ta‘siri keyingisi narxiga sezilarli darajada bog‘liq. va Markov modeli fond bozori narxlarini bashorat qilishda qo‘llab yaxshi natijalarga erishish mumkinligini takitlashgan. Luc Tuyen esa seriyadagi o‘zgarishlarning turli darajalarida qurilgan yuqori tartibli yangi Markov modelini taqdim etadi[4]. O‘tish ehtimoli aralash to‘plamlar asosida hisoblanadi va aniqlik ARIMA va ANN kabi boshqa vaqt seriyalari modellari bilan taqqoslanadi. Sang Ho Park, Ju-Hong Lee, Jae Won va boshqalar aksiya baholarining moliyaviy vaqt seriyalarining dinamik xarakterini qo‘lga kiritish uchun Yashirin Markov modelini qo‘llashni taklif qiladi[5]. Katta ma‘lumotlarni tahlil qilish fond bozori tahlilida ham keng tarqalgan. Respublikamizdagi fond bozorida qimmatbaho qog‘ozlar narxining o‘zgarida markov zanjiri modeli qanday o‘rin tutadi ?

Qo‘llanishi

Markov jarayoni stoxastik jarayon bo‘lib, keyingi ta‘sir xususiyatlariga ega emas. Ta‘sirdan keyingi xususiyatlar shuni anglatadiki: t vaqtidagi t_m dan katta bo‘lgan bu holat faqat qaysidir jarayondagi t_m momentidagi holatga bog‘liq lekin jarayonning t_m momentidan oldingi holatga bog‘liq emas.

Ta‘rif. Tasodifiy ketma-ketlikning diskret holat vektori E bo‘lsin. Agar har qanday manfiy bo‘lmagan butun son n_1, n_2, \dots, n_m va ixtiyoriy natural son m uchun, $i_1, i_2, \dots, i_m, j \in E$ qanoatlantiruvchi bo‘lsa:

$$P\{X_{(n_m+k)} = j | X_{n_1} = i_1, X_{n_2} = i_2, \dots, X_{n_m} = i_m\} = P\{X_{(n_m+k)} = j | X_{n_m} = i_m\} \quad (1)$$

u holda bu tasodifiy ketma-ketlik $\{X_{(n)}, n = 1, 2, \dots\}$ **Markov zanjiri** deyiladi[6].

Balanslangan tizimda, agar tizimning i holatidan j holatiga ehtimoli P_{ij} bo'lsa, u holda tizim holatidagi o'tish ehtimoli vektori to'plami uzatish matritsasini hosil qiladi, bu quyidagicha yoziladi:

$$P = [P_{ij}]_{m \times n} \quad (2)$$

Bu yerda uzatish matritsasi ehtimollik matritsasi bo'lishi kerak, uning ishlash qoidalari an'anaviy matritsa bilan bir xil. O'tkazish matritsasi quyidagi xususiyatlarga ega:

$$P^{(k)} = P^{(k-1)} * P = P^{(k)} \quad (3)$$

Markov zanjiri bo'yicha jarayonni tahlil qilish va prognozlashda biz quyidagi bosqichlarni amalga oshiramiz: (1) holatni vektorini qurish va tegishli holat ehtimolini aniqlash; (2) holatga o'tish ehtimoli matritsasi holatini uzatish orqali yozish; (3) O'tish ehtimoli matritsasi bo'yicha holat vektorining barcha turlarini olish; (4) barqaror holatda tahlil qilish, bashorat qilish va qaror qabul qilish.

Fond bozoridagi kvarst aksiyadorlik jamiyatini aksiyalarini empirik tahlil qilish

Toshkent fond birjasidagi aksiyalarning qaysi biri kelajakda investorga yaxshi daromad olib keladi yoki qaysi aksiyalar kelajakda qadirsizlanib investorni daromadini tushishiga tasir qilishini bashorat qilish ob'ekti sifatida qo'llashimiz mumkin.

